SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ 9 (3) - 2023

# ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

# АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

# ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
ELECTRONIC JOURNAL

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SCP1342V3I9Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

***№ 9 (3)-2023***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**ТОШКЕНТ-2023**

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич –филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа октори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

**Таҳририят манзили:**
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал:
https://t.me/scienceproblems_uz

***МУНДАРИЖА***

**07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ**

*Matajonov Rahimjon Akramovich*
"VII-VIII ASRLARDA ARAB XALIFALIGI ISTILOSIGA QARSHI KURASHDA MAHALLIY HUKMDORLARNING O'RNI VA ROLI" MAVZUSIGA OID INGLIZ TILLI TADQIQOTLAR TAHLILI ........ 10-16

*Облобердиев Жасурбек Косим угли*
МЕРЫ НАКАЗАНИЯ, ПРИМЕНЯЕМЫЕ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛЕ XX ВВ ........ 17-22

**08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ**

*Турсунов Бекмухаммад Омонович*
МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ БАҲОЛАШНИНГ МЕЗОН ВА КЎРСАТКИЧЛАРИ ........ 23-34

*Курпаяниди Константин Иванович*
ИССЛЕДОВАНИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ СИСТЕМ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ ЧЕРЕЗ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ РЕФОРМЫ ........ 35-44

*Ahmedov Shohjaxon*
O'ZBEKISTONDA CHAKANA SAVDONI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI ........ 45-51

*Кулибоев Азамат Шоназарович*
БЮДЖЕТ ТАШКИЛОТЛАРИДА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ ........ 52-62

*Рўзиев Абдумалик Ортиғалиевич*
МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТНИ РАҚАМЛАШТИРИШНИ БАҲОЛАШДА МИҚДОРИЙ ВА АХБОРОТ ТАҲЛИЛИ МЕТОДОЛОГИЯСИ ........ 63-73

*Abduraxmanova Shoxida Ravshanovna*
TIBBIYOT MUASSASALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH ........ 74-80

*Davronov Istamxo'ja Olimovich*
MEHMONXONA XIZMATLARI RAQOBATBARDOSHLIGI VA SIFATINI BAHOLASH USULLARI ........ 81-86

*Маматов Бахадир Сафаралиевич*
ҲУДУДЛАРДА ИНВЕСТИЦИЯВИЙ МУҲИТ ЖОЗИБАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ МАСАЛАЛАРИ ........ 87-96

*Шолдаров Дилшод Азимиддин ўғли*
КАМ ТАЪМИНЛАНГАН ОИЛАЛАР УЧУН НАФАҚА ВА МОДДИЙ ЁРДАМ ТАЙИНЛАШ ВА ТЎЛАШ ТАРТИБИ ........ 97-104

*Баратов Махсудали Назиралиевич*
МИКРОМОЛИЯВИЙ ТАШКИЛОТЛАР ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ – ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ ........ 105-116

*Ergashev Islom Ismoilovich*
KESKIN RAQOBAT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI ........ 117-127

*Қодиров Азизжон Анварович*
ЎТИШ ИҚТИСОДИЁТИ МАМЛАКАТЛАРИДА ЭКОТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ АМАЛИЁТИ ........ 128-136

*Эшонкулов Акмал Кудратович*
ПРОБЛЕМЫ ПРОВЕДЕНИЯ АНАЛИЗА ДЕНЕЖНЫХ ПОТОКОВ ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН ........ 137-142

*Астанов Шерзод Рустамович*
ЎЗБЕКИСТОНДА ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИНВЕСТИЦИОН ЛОЙИҲАЛАРНИ ЖАЛБ ҚИЛИШНИНГ ТАШКИЛИЙ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ........ 143-150

## ***09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ***

*Abdullayev Ibodulla Abdullayevich*
YOSHLARNI MILLIY G'URUR RUHIDA TARBIYALASHDA OILA VA OILAVIY QADRIYATLARDAN UNUMLI FOYDALANISH USULLARI ........ 151-155

*Turabova Sevara Kattaqulovna*
BAHS–MUNOZARALARDA QO'LLANILADIGAN TUZOQLAR VA MANIPULYATSION (SPEKULYATIV) USULLAR ........ 156-164

*Alimatova Nargis Abduxalilovna*
BARQAROR RAQOBAT USTUNLIGI-RAQOBATBARDOSHLIK OMILI ........ 165-174

*Allayarova Marhabo Mavlonovna*
UCHINCHI RENESSANS DAVRIDA YOSHLAR BADIIY IJODINI RIVOJLANTIRISH ZARURIYATI ........ 175-179

*Рахманов Баҳодир*
СИНЕРГЕТИК ТАФАККУР: ФАЛСАФИЙ МЕРОСИМИЗНИ ТАДҚИҚ ЭТИШНИНГ АҲАМИЯТИ ........ 180-186

*Abdiraxmanov Muzaffar Zaripbayevich*
ABU ALI IBN SINONING XORAZM MA'MUN AKADEMISIDAGI FAOLIYATI ........ 187-191

*Mirzaxalov Xojiakbar Tajibayevich*
JAMIYATDA GENDER TENGLIGI MUAMMOSINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI ........ 192-197

*Azimov Ashirali Mehmonboyevich*
XOTIN-QIZLAR GENDER MA'RIFATINING IJTIMOIY BARQARORLIKKA TA'SIRI ........ 198-202

*Azimov Sherzod*
PHILOSOPHICAL REFLECTION ON THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF SPORT IN SOCIETY ........ 203-207

*Абдурахмонович Хасан Иброхимович*
ЎЗБЕКИСТОНДА ЁШЛАР ИННОВАЦИОН ТАФАККУРИНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИ ........ 208-216

## 10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

*Kuliyeva Dilshoda Alijon qizi*
QUMAN TOPISHMOQLARINING OʻZBEK FOLKLORIDAGI PARALLEL SHAKLLARI .......... 217-223

*Тешабаева Дилфуза Муминовна, Абдухалилова Гулбаҳор Карабаевна*
ТУРИЗМ СОҲАСИГА ОИД СЎЗ ВА ИБОРАЛАРНИ ПРЕФИКСЛАР ЁРДАМИДА ЯСАЛИШИ ........ 224-230

*Abdinazarov Uktam Qushoqovich*
INGLIZ VA OʻZBEK TILLARIDA GIPPOLOGIK TERMINLARNING LINGVISTIK TADQIQI.. 231-236

*Axmedova Shaxodat Maxmutovna*
OʻZBEK XALQ PAREMALARIDA SHIFO KONSEPTINING IFODALANISHI........ 237-241

*Ruziyev Xusniddin Baxritdinovich*
JAHON TILSHUNOSLIGIDA PAREMALAR TADQIQI ........ 242-246

*Vositov Otabek Toxirjonovich*
TABIATNING ATMOSFERA HODISASI UMUMIY MA’NOSI VA LEKSIK SEMANTIK GURUHLARNING STRUKTURAL XUSUSIYATLARI ........ 247-253

*Нодир Раҳматуллаев*
НАЗАР ЭШОНҚУЛ НАСРИДА ШАРПА АРХЕТИПИНИНГ ТАЛҚИНИ ........ 254-260

## 12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

*Мамасобиров Давронбек Эрназарович*
ВАТАНДОШЛАР БИЛАН ИШЛАШ: ҚИЁСИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛ ........ 261-270

*Urakov Djahongir Rajabovich, Sharipovasror Safar o’g’li*
OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUN HUJJATLARIDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARNING HUQUQIY ASOSLARI ........ 271-276

## 13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

*Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna*
OLIY TIBBIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARI HISSIY-KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH ........ 277-281

*Umarova Zaxro Abduraxim qizi*
TALABALAR MUSTAQIL TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA NOSTANDART FIKRLASH (THINKING OUTSIDE THE BOX) NING ROLI ........ 282-287

*Kadirov Ramz Turabovich*
TALABA-AKTYORLARNING SAHNA NUTQIGA OID BILIM VA KOʻNIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING SPETSIFIK TEXNOLOGIYALARI (DARS JARAYONIDAGI MASHGʻULOTLAR MISOLIDA) ........ 288-295

*Khabiba Madaminovna Jurabekova*
THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF LISTENING IN THE FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE OF STUDENTS IN RUSSIAN LESSONS ........ 296-302

*Nishonov Akmal Obidovich, Xamrakulov Xamidullo Turgunboyevich*
KLASTERLI O‘ZARO TA’SIR SHAROITIDA INFORMATIKA O‘QITUVCHILARINING MALAKASINI OSHIRISH JARAYONINI MODELLASHTIRISH MASALALARI ........ 303-310

*Ergashev Murodbek Ikromovich*
MUSIQA TA’LIMIDA O‘QUVCHILARNING KREATIV VA IJTIMOIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MAVJUD IMKONIYATLARI ........ 311-316

*Utkirov Nusrat Kamilovich*
BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHNING KASBIY-PEDAGOGIK KOMPETENTLI TA’MINOTINI RIVOJLANTIRISH ........ 317-322

*Yulbarsova Xurshida*
BO‘LAJAK SOTSIOLOGLARDA IJTIMOIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK JIHATLARI ........ 323-329

*Baychayev Fazliddin Xusenovich*
BO‘LAJAK KON-METALLURGIYA SANOATI MUTAXASSISLARINING ELEKTROSTATIKAGA OID NAZARIY BILIMLARINI MUSTAHKAMLASH ........ 330-335

*Muminov Ulmas Ravshanqulovich*
O‘ZBEKISTONDA “MAHALLA INSTITUTI” NING MAHALLIY O‘Z-O‘ZINI BOSHQARISH – ORGANI SIFATIDA SHAKLLANISHI, UNING HUQUQIY ASOSLARINI YARATILISHI ........ 336-341

*Tajibayeva Ma’mura Tojidinovna*
AJDODLARIMIZ PEDAGOGIK TA’LIMOTLARINI O’RGANISH ASOSIDA TALABALARDA G’OYAVIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH ........ 342-346

*Askarova Zulayxo*
BOSHLANG‘ICH TA’LIM JARAYONIDA O‘QUVCHILARNING FIKRLASH DARAJASINI ANIQLASHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH SAMARASI ........ 347-352

*Akhmadjonova Diyora Dilshod qizi*
EXPLORING THE EFFECTIVENESS OF TEACHING THROUGH ONLINE PLATFORMS ........ 352-362

*Jumaniyazova Go‘zal*
OLIY O‘QUV YURTI TALABALARINI PIRLSGA YO‘NALTIRILGAN TOPSHIRIQLARNI TAYYORLASHGA O‘RGATISH METODIKASI ........ 363-367

*Хусаинова Лейла Юнусова*
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В ОБУЧЕНИИ ФОНЕТИКЕ: ТЕХНОЛОГИИ И МЕТОДЫ ........ 368-373

*Xudayberganov G‘ayrat Quranboyevich*
MATEMATIK KREATIV TAVSIFDAGI MASALALARNING BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA KREATIV FIKRLASHINI FANLARARO ABSSESSIAL VA ORDINATAL BOG‘LAB SHAKLLANTIRISHDAGI O‘RNI VA ROLI ........ 374-379

*To‘xtasinov Muhammadjon*
PEDAGOGLAR KASBIY KOMPETENLIGINI OSHIRISHDA UZLUKSIZ METODIK XIZMATNING O‘RNI ........ 380-384

*Eshnazarov Murod Karimovich*
GERMENEVTIK YONDASHUV ASOSIDA TA`LIM MAZMUNINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI ........................................ 385-391

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 9 (3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

*13.00.00- Педагогика фанлари*

**Yulbarsova Xurshida**
Farg'ona davlat universiteti,
sotsiologiya kafedrasi dotsenti

## BO'LAJAK SOTSIOLOGLARDA IJTIMOIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK JIHATLARI

**Annotatsiya.** Ta'lim jarayoniga bo'lgan zamonaviy talablar bizga kasbiy ijtimoiy kompetentlilikning tashkil topishi va shakllanishini pedagogik jarayon sifatida ham qabul qilish imkoniyatini beradi. U talabalarda ahamiyatli-motivatsion sohani va kasbiy faoliyatning shaxslararo va madaniyatlararo ijtimoiy kompetentsiyalarni rivojlantirish bilan sifatli kasbiy kompetentsiyalar bilan ta'minlashga yo'naltirilgan. Shu sababli maqolada bo'lajak sotsiologning yetuk mutaxassis sifatidagi ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish o'sib kelayotgan yoshlarni mehnat faoliyatlarida o'z o'rnini topishlariga, sifatli ta'lim olishlariga, shaxslararo ijtimoiy-madaniy muloqotlarini shakllantirishda insonparvarlikning eng muhim elementi o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi sub'ekt-ob'ektga oid muloqot muhim omil ekanligi, bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik jihatlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy kompetentlik, kompetentsiya, insonparvarlik, amaliy faoliyat, zamonaviy axborot texnologiyalari, asosiy kompetensiyalar, bo'lajak sotsiolog, ijtimoiy munosabatlar.

**Yulbarsova Khurshida**
Associate professor of sociology department of
Fergana State University

## ORGANIZATIONAL AND PEDAGOGICAL ASPECTS OF DEVELOPING SOCIAL COMPETENCE IN FUTURE SOCIOLOGISTS

**Abstract.** Modern requirements for the educational process give us the opportunity to accept the organization and formation of professional social competence as a pedagogical process. It is aimed at providing students with high-quality professional competences with the development of significant and motivational spheres and interpersonal and intercultural social competences of professional activity. Therefore, in the article, the development of the social competence of the future sociologist as a mature specialist will help young people to find their place in labor activities, get quality education, the most important element of humanity in the formation of interpersonal socio-cultural dialogues is the sub between the teacher and students. The fact that object-object communication is an important factor, the organizational and pedagogical aspects of the development of social competence in future sociologists are analyzed.

**Key words:** social competence, competence, humanitarianism, practical activity, modern information technologies, basic competencies, future sociologist, social relations.

**Юлбарсова Хуршида**
Доцент кафедры социологии
Ферганского государственного университета

# ОРГАНИЗАЦИОННО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ СОЦИОЛОГОВ

**Аннотация.** Современные требования к образовательному процессу дают нам возможность принять организацию и формирование профессиональной социальной компетентности как педагогический процесс. Она направлена на формирование у студентов качественных профессиональных компетенций с развитием значимых и мотивационных сфер и межличностных и межкультурных социальных компетенций профессиональной деятельности. Поэтому в статье развитие социальной компетентности будущего социолога как зрелого специалиста поможет подрастающей молодежи найти свое место в трудовой деятельности, получить качественное образование, важнейший элемент человечности в формировании межличностных социокультурных отношений. культурный диалог является субститутом между учителем и учащимися.В связи с тем, что предметно-предметное общение является важным фактором, анализируются организационно-педагогические аспекты развития социальной компетентности у будущих социологов.

**Ключевые слова:** социальная компетентность, компетентность, гуманизм, практическая деятельность, современные информационные технологии, базовые компетенции, будущий социолог, социальные отношения.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3I9Y2023N43

Keyingi yillarda mamlakatimizda ta’lim tizimiga xususan sotsiologlar tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va takomillashtirishning huquqiy asoslari yaratilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 22 fevraldagi PF-5667-sonli “Sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida mamlakatimizda davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarini demokratlashtirishga, innovatsion texnologiyalarni joriy etishga, inson salohiyatini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratishga, aholining farovonlik darajasini oshirishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli islohotlar sharoitida muayyan sohadagi vaziyatni sifat jihatidan o‘zgartirish hamda ilg‘or xorijiy va mahalliy nazariy-metodologik vositalardan foydalanish asosida uni rivojlantirish vazifalarini davom ettirish xususida sotsiologik so‘rovlar o‘tkazishning sifat jihatidan yangi va zamonaviy tadqiqot amaliyotini shakllantirish masalasiga alohida ahamiyat qaratilgan. Farmonda muntazam ravishda jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarga nisbatan jamoatchilik fikrini o‘rganib borish masalasi qo‘yilgan. Bu esa sotsiologlar tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishni takomillashtirish pedagogik vazifasini yuklaydi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvini amalga oshirishda bo‘lajak sotsiologlarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shartlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi: oliy ta’lim muassasasining ta’lim maydonida ijtimoiy hayot kontekstini modellashtirish; motivatsion rag‘batlantirishdan foydalanish (guruhda o‘zini o‘zi tasdiqlash, o‘z qadr-qimmatini to‘g‘rilash, ijodiy, tashkiliy va boshqa qobiliyatlarni ro‘yobga chiqarish, talabalarning yaqin atrofi muhitida faoliyat natijalariga talab), talabalarni rag‘batlantirish; ijtimoiy yo‘naltirilgan harakat va harakatlar usullarini o‘zlashtirish; professor-o‘qituvchilarning rivojlangan shaxsi va uning talaba shaxsiga insonparvarlik munosabati; o‘qituvchilarning kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirishi; ijtimoiy-shaxsiy yo‘naltirilgan ta’lim muassasasi madaniyati kabilar.

Ta’lim jarayoniga bo‘lgan zamonaviy talablar bizga kasbiy ijtimoiy kompetentlilikning tashkil topishi va shakllanishini pedagogik jarayon sifatida ham qabul qilish imkoniyatini beradi. U talabalarda ahamiyatli-motivatsion sohani va kasbiy faoliyatning shaxslararo va

madaniyatlararo ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish bilan sifatli kasbiy kompetensiyalar bilan ta’minlashga yo‘naltirilgan. Bo‘lajak sotsiologda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonini baholar ekanmiz, ta’limda, ayniqsa, yuksak samaradorlikka erishishga ko‘maklashuvchi qator tashkiliy pedagogik shart-sharoitlarga diqqatni qaratish zarur. (2.1-chizma). Bo‘lajak sotsiologlarga ta’lim berishda o‘qituvchining talabalar bilan munosabatini, muloqotini insonparvarlashtirish sotsial munosabatning asosi sifatida baholanadi.

**1.1-chizma**

**Bo‘lajak sotsiologlar ijtimoiy kompetentsiyalarini shakllantiruvchi integratsion pedagogik sharoitlar**




Integratsion shart-sharoitlarni birma-bir tahlil qilib ko‘rsak. Ta’lim olayotganlarni ijtimoiy tarbiyasining asosiy omillaridan biri, ta’lim makoni yoki muhiti hisoblanadi, u pedagogik tizimni tashkil qiluvchi tizim vazifasini bajaradi. V.A.Levin “ta’lim makoni – uni to‘laqonli rivojlantirish uchun imkoniyatlar mavjud bo‘lganda, ijtimoiy-madaniy va predmetli sharoitda shaxs shakllanishining alohida, o‘ziga xos ta’siri va shart-sharoitlari tizimi rivojlanadi”, [5, 365 b.] deb hisoblaydi. Bunda muhit bir zaylda bo‘lmasligi kerak. Ya'ni sotsial muhitni doimiy ravishda isloh qilish zarur bo‘ladi.

Umuman olganda, oliy o‘quv yurtida ta’lim jarayonining o‘ziga xos xususiyati shundaki, u talabalar mustaqil o‘qishini ma’lumotlar bilan ta’minlashga yordam beradi va bu atrofdagilar

bilan alohida ma'lumot almashinish jarayonlarida koʻrinadi. Oʻzaro ma'lumot almashinish quyidagi toʻrt mezon asosida amalga oshirilishi mumkin (1-jadval).

**1-jadval.**

**OOʻYu ta'lim muhitida oʻzaro ma'lumot almashinish mezonlari**

| Mezon | Oʻziga xos xususiyat |
|---|---|
| **1. Me'yoriy-tartiblovchi** | Bir qator qonunlar va qonun chiqaruvchi hujjatlarni oʻz ichiga olib, ularda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari huquq va majburiyatlari aks ettiriladi, ularning faoliyat sharoitlari qat'iy belgilanadi |
| **2. Istiqbolli-yoʻnaltiruvchi** | Kelgusida amalga oshirishi rejalashtirilgan ta'limni rivojlantirish doktrinalari va dasturlarini |
| **3. Kommunikativ-axborotli** | Ma'lumot almashinish uchun barpo qilishga yoʻnaltirilgan boʻlib, turmushning real olami va unda insonning oʻrni haqidagi maxsus tanlab olingan axborotlarni kiritadi, shuningdek, ta'lim ishtirokchilari oʻrtasida oʻziga xos ma'lumot almashinish vositasi boʻlib xizmat qiladi |
| **4. Faol-ragʻbatlantiruvchi** | Talabalarni oʻz vazifalarini bajarish bilan birga bilim olish hamda boshqa ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga motivlashtirishga qaratilgan |

Boʻlajak sotsiologlarni oʻqitishning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- talabalarga oʻz sotsial portretlarini tuzish orqali oʻz-oʻzini anglashga koʻmaklashish,
- ularga atrofidagi insonlarni tushunishni oʻrgatish,
-talabalarda ijtimoiy-psixologik jihatdan toʻgʻri va tushunarli muomalada boʻlish koʻnikmalarini shakllantirish,
-ularga oʻzining shaxsga oid va kasbiy rivojlanish istiqbollarini koʻra olishni oʻrgatish orqali ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish.

Bundan tashqari integrativ yondashuv asosida sotsiologiya, psixologiya, pedagogika va matematika fanlari talabalarda kommunikativlilik, kreativlik, analitik fikrlash, tolerantlilik, tahlil qilishga moyillik kabi ijtimoiy kompetensiyalarni, shuningdek, butun umri davomida ta'lim olishga boʻlgan motivatsiyani rivojlantirishga qodir. Bunda ijtimoiy kompetentlilikning

muhim zaruriy qismi boʻlgan oʻqituvchi va talabalar oʻrtasidagi munosabatlarni insonparvarlashtirish quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanishi mumkin.

Bunda insonparvarlikning eng muhim elementi oʻqituvchi va talabalar oʻrtasidagi subyekt-obyektga oid muloqotning oʻzgarishi muhimdir. Oʻqituvchi va uning oʻquvchilari alohida "oʻzlarining ijodiy individualliklarini toʻlaqonli rivojlantirish subyektlari"ga aylanadilar, bunda pedagogik jarayon, avvalo, muloqot jarayoni hisoblanadi. Bizga maʼlumki, uzoq oʻtmishdan ayon boʻlgan insonparvarlikni targʻib qiluvchi komil inson sifatlari muloqot jarayoni bilan bogʻliqdir. Masalan, "Avesto"da komil inson sifatlari bir-biri bilan chambarchas bogʻliq, bir-birini toʻldiruvchi va biri birini taqozo etuvchi ezgu fikr, ezgu soʻz va ezgu amal birligida namoyon boʻladi. Demak, "Avesto" inson shaxsining takomilini insonlarga, tabiatga nisbatan ezgu fikr, ezgu soʻz va ezgu amal birligining uzviy bogʻliqligini oʻzida mujassam etgan dastlabki ijtimoiy-pedagogik asar hisoblanadi. Integrativ pedagogik va ijtimoiy yondashuvning asosiy prinsiplarini oʻzida mujassam etgan bu axloqiy uchlik eng qadimgi davrlardan boshlab undan keyin yaratilgan barcha maʼrifiy asarlarga asos boʻlgan desak, mubolagʻa boʻlmaydi. "Zero, unda insonning inson sifatida maʼnaviy va moddiy kamol topishi uchun zarur boʻlgan muayyan talablar oʻz ifodasini topib, hayot kodeksi sifatida faqat Sharq xalqlarining emas, Gʻarb xalqlarining ham muqaddas merosi boʻlib qoldi. Demak, eng qadimgi yodgorliklar ezgulik, vatanparvarlik, samimiylik, oqkoʻngillik, xushmuomalalik haqida taʼlim beradi" [2, 21-22 b.].

Ijtimoiy kompetentlilikning zaruriy sharti hisoblangan insonparvarlikni targʻib qiluvchi maʼrifiy yodgorliklarimiz qatorida Qurʼoni Karim va Hadisi shariflarning ham oʻrni beqiyosdir. Islom dini insonlarni yaxshilikka daʼvat etadi, yomonlikdan qaytaradi. Insonparvarlikni targʻib etib, razolatni qoralaydi. Buni biz Qurʼonning inson kamolotga erishishida qay darajada oʻrin egallashini, uning insonga, butun borliqqa munosabati, turmush tarzi va odob-axloq meʼyorlarini tarkib toptirishda ulkan ahamiyatidan ham bilsak boʻladi. Maʼlumki, Qurʼoni Karimda xushmuomalalik, muloqot odobi insonning tabiiy vazifasi boʻlishi kerakligi talqin etiladi. Kim insonlar bilan munosabatda xushmuomala, oqkoʻngil boʻlsa, bu ham ehson hisoblanib, uning ajr-u mukofoti ulugʻ boʻlishligi aytilgan. Chunki birovga yaxshilik qilgan kishi oʻzida ruhiy qanoat his etishi, boshqalar tomonidan hurmat – ehtiromga sazovor boʻlishi taʼkidlanadi. Shu oʻrinda insonparvarlik prinsipi nogironligi bor shaxslar bilan ishlashda, ularning ijtimoiy munosabatlarini oʻrganishda boʻlajak mutaxassisning kasbiy kommunikativ kompetensiyasining muhim sharti hisoblanadi.

Taʼlim va tarbiyaning ijtimoiy sohasiga oʻz munosabatlarini bildirgan zamonaviy mualliflar (X.Abdukarimov, G.G.Chanisheva, B.D.Elьkonin, F.R.Yuzlikayev) pedagogik jarayonning insonparvarlashayotgani haqida aytib, bu oʻrinda uning ishtirokchilari dialogi talabalarning oʻqituvchi bilan toʻla teng huquqli boʻlishlari kerakligini tasdiqlaydilar. Bunda shaxslararo muloqotlarning tashkil topishi va talabalarning ijtimoiy sifatlarini toʻkis rivojlanishiga taʼsirining keng samaradorligi, pedagogik faoliyatning kerakli sharti hisoblanadi. Lekin bunda eng murakkab jihat talaba shaxsini boshqarish bilan bogʻliq muammodir. Bu muloqot bilan M.N.Berulava hali-hanuz zamonaviy taʼlim jarayonida anʼanaviy pedagogikaning mohiyatiga toʻxtalib istehzo bilan: "Taʼlim oluvchi xuddi uni tashqi taʼsirlar, yangi texnologiyalar, umumiy standart va normativlar yordamida boshqarish mumkin boʻlgan qandaydir muhandislik-texnologik mexanizm sifatida gavdalanadi"[3, 21-22 b.], deb yozadi.

A.A.Leontevning taʼkidlashicha, "kommunikativ xulq deganda nafaqat fikrni bayon etish jarayoni, maʼlumotlarni yetkazish shakli, balki oʻzaro munosabatlar tabiatiga taʼsir

koʻrsatuvchi, pedagog va oʻquvchilar muloqotini emotsional (his-tuygʻu)-psixologik muhiti hamda ularning ish uslublarini belgilovchi nutqni tashkillash"[4, 41 b.], ya'ni alohida madaniy axloq-odobga oid munosabatlarni vujudga keltirish tushuniladi. Biroq sotsiolog va mijozlar(masalan nogironligi boʻlgan shaxslar) oʻrtasidagi har qanday axloq-odobga oid munosabatlar faqatgina bitta muhim shart, ya'ni "mutaxassisning oʻzi ham insonparvar dunyoqarashga, "ichki oʻzini tutish madaniyatiga ega boʻlishi" sharti bilan shakllantirilishi kerak. Insonparvar dunyoqarash sotsiolog kasbining asosiy mezoni hisoblanadi, axloq-odobga oid madaniyat esa buning eng muhim qismi sanaladi. Sotsiologiyadagi insonparvar gʻoyalar bizning davrimizga kelib paydo boʻlgan boʻlmasa-da, koʻp hollarda shunchaki gap boʻlib qolmoqda, amaliy faoliyat esa avtoritar ta'lim va tarbiya metodlariga asoslanmoqda. Koʻrishimiz mumkinki, ta'limdagi insonparvar yoʻnalish, turli-tuman shakl va metodlarning koʻpligiga qaramasdan, ma'lum darajada talaba shaxsiga boʻlgan ishonchga asoslanadi, chunki u oʻzini oʻzi toʻlaqonli rivojlantirishga va oʻzini oʻzi kamolotga yetkazishga qodir. Biroq ma'lum shaxsga oid xislatlarning sohibi va targʻibotchisi boʻlgan sotsiolog mijoziga nisbatan diqqat-e'tibor muhitini yaratishi, muloqotni dialogga asoslanib olib borishga tayyor boʻlishi, aynan mijozlar kutgan professional rolni bajarishi orqali talabalarga jamiyatga moslashuvni, ijtimoiy jarayonlarni sotsial tahlil qilishni qay darajada ta'minlay olishi muhim muammodir.

Ana shu jihatdan qaraganda, shaxsga yoʻnaltirilgan ta'lim sotsiolog-mutaxassislarda sotsiologiyaning nazariyasi, amaliyoti va tadqiqot usullarini atroflicha o'rganishlarida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bunda asosiy e'tibor amaliy faoliyatni olib borishda sotsiologik bilim va usullardan foydalanish imkoniyatlarini ishlab chiqishga, O'zbekiston va jahondagi sotsial muammolarga nisbatan qiziqishning oshganligiga qaratiladi.

Bu holat bo'lajak sotsiologning ijtimoiy kompetensiyalari uning amaliy tadqiqotlar faoliyati bilan bogʻliqligini ifodalaydi. Bunda bo'lajak sotsiologdan sotsiologik tadqiqotlarni o'tkazishda axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishni talab qiladi. Nazariy va amaliy tadqiqotlar, qoida tariqasida, juda katta ijtimoiy muammoni rivojlantirishning yo'nalishlari va eng muhim bosqichlarini ko'rsatishi kerak bo'lgan istiqbolli tadqiqot dasturi doirasida amalga oshiriladi.

Bugungi kungi sotsiologiya ta'lim yo'nalishlaridagi mavjud o'quv reja va dasturlarining mazmunini qayta ishlab chiqish, ta'lim jarayonida o'qitishning samarali shakl va metodlarini qo'llash, talabalarning o'quv-uslubiy tayyorgarligini kuchaytirish, ijtimoiy-kasbiy mahoratini oshirishning pedagogik shart-sharoitlarini shakllantirish kabi muammolarni yechish uchun mazkur yo'nalishda ilmiy tadqiqot ishini olib borishni taqozo etadi. Shuning asosida bo'lajak sotsiologlarning ijtimoiy-kasbiy tayyorgarligi darajasini oshirish, ilgʻor pedagogik texnologiyalarga asoslangan zamonaviy ta'lim-tarbiyaning metodologik asoslarini ishlab chiqish zaruriyati mavjud. Bunda bo'lajak sotsiologning yangi pedagogik texnologiyalar asosida tayyorlash jarayonida, eng avvalo, pedagogik texnologiya mohiyatini asoslashaxborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Yuqori malakali kadrlar xozirgi rivojlanayotgan jamiyat uchun muhim sanalgan bugungi davrda bo'lajak mutaxassisdan axborot texnologiyalarini mukammal egallashni talab qiladi. Bunday talabni bajarishda oliy ta'lim muassasalarida mugaxassislikka oid fundamental bilimlarni hamda raqamli va axborot texnologiyalarini mustahkam egallashga qodir mutaxassislar tayyorlashga yo'naltirishni taqozo etadi.

Boʻlajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik jihatlarining tahlili bizga quyidagi xulosalarni berish imkonini berdi:

- boʻlajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning eng muhim tashkiliy jihati ularning ijtimoiy jarayonlardagi amaliy faoliyati hisoblanadi;
- OTMdagi ta’lim jarayonida va darsdan tashqari jarayonlarda oʻqitishning faol usullaridan keng foydalanish, kasbiy bilimlarni zamonaviy shakl, metod va vositalar asosida oʻqitish;
- boʻlajak sotsiologlarga ta’lim berishda oʻqituvchining talabalar bilan munosabatini, muloqotini insonparvarlashtirish ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishning asosi hisoblanadi.
- oʻrganilayotgan ijtimoiy hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali ijtimoiy kompetensiyalarining rivojlanishi fan sohasini chuqur oʻzlashtirilishining asosi hisoblanadi;
- ijtimoiy kompetentlilik rivojlanishi jarayonida turli oʻquv fanlar oʻrtasida aloqalarni oʻrnatish;
- bo’lajak sotsiologdan sotsiologik tadqiqotlarni o’tkazishda axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish ko’nikmasiga ega bo’lishni talab qiladi;
- boʻlajak sotsiologda ijtimoiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonida volontyorlik guruhlarini tashkil etish;
- ijtimoiylikka yoʻnaltirilgan malakaviy amaliyot jarayonida faol yondashuvni amalga oshirish kabilar shular jumlasidandir.

Demak, shunday xulosa qilish mumkinki, amaliy-pedagogik yondashuv boʻlajak sotsiolog-mutaxassislarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish jarayoniga samarali ta’sir koʻrsatadi. Chunki real hayotga yaqinlashtirilgan oʻqitish, jarayondan, muayyan vaziyatdan tashqari holda talabalarni kasbiy ijtimoiy faoliyatga toʻlaqonli tayyorlashni amalga oshirish qiyin. Shunday ekan, bunda volontyorlik guruhlarini tashkillash va unga boʻlajak sotsiolog-mutaxassislarni keng jalb qilish orqali ularning ijtimoiy, kasbiy, kommunikativ tayyorgarligi sifatini oshirish mumkin. Bu faoliyat ularga ma’lum bir ijtimoiy vaziyatlarni loyihalash asosida rejali ishlash koʻnikmalarini ham shakllantiradi.

## Adabiyotlar/Литература/References:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoyev, “Sotsiologik tadqiqotlar oʻtkazishni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni, 22.02.2019 yil PF-5667-sonli.
2. Азимова З.Э. Ўқувчиларнинг шахслараро муносабатлари интеграл диагностикаси. Дисс… канд. пед. наук. – Тошкент, 2009. 20-25 с.
3. Берулава М.Н. Общедидактический подход к гуманизации образования. Педагогика. – М., 1994. - С. 21-22.
4. Леонтьев А.Н. Избранные психологические произведения: В 2т. // Т.1. М.: Педагогика, 1983. – С. 68.
5. Левин В.А. Образовательная среда: от моделирования к проектированию. – М.: Смысл, 2001. – С. 365.

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SCP1342V3I9Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 9 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари"** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).